ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(2)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 606 sahifa,
9-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika ta'limida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari 10
Xalikov Akbar Tilovberdiyevich

Terminologik kompetensiya bo'lajak shifokor kasbiy kompetentligining komponenti sifatida 14
Namazova Munavvar Oltibekovna

Alisher Navoiy merosi asosida ota-onalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish 17
Rashidov Javohir Akram o'g'li

Negotiating Communicative Power and Social Hierarchy in English and Uzbek Literary Discourse: A Comparative Pragmalinguistic Study 22
Nodirabegim Xonturaeva

STEM yondashuvi asosida o'quvchilarda robototexnika ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari 31
Nasimova Hikoyat Nosirovna

O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari 37
Po'latova Barno Raximjon qizi

Ingliz va o'zbek o'rta asrlar adabiyotining shakllanishi va taraqqiyot omillari: qiyosiy-tipologik tahlil 41
Atanazarova Shoxida Baxramovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarni sel texnologiyasi asosida shakllantirishning metodik imkoniyatlari 47
Normurotova Aziza Karim qizi

Tarjimonlik kompetensiyalarini rivojlantirish 52
Karayeva Karima Nabiyevna

Ixtisoslik modullari asosida bo'lajak logopedlarning diagnostik-korreksion kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 57
Sarimsoqova Maftuna Obidjon qizi

O'smir yoshdagi o'quvchilarda internet tobeligining psixologik omillari va uni bartaraf etish yo'llari 61
Toshpo'latova Nodira Xudjamurodovna

Maktabgacha ta'lim yoshidagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning psixologik asoslari 65
Jumanova Nasiba Sherboyevna

Kasbiy ta'limda "media va axborot savodxonligi" fanini o'qitishda o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari 69
Shomirzayev Baxtiyor Nazarovich

O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari 74
Po'latova Barno Raximjon qizi

Blended-learning modeli asosida iqtisodiyot fanining o'quv samaradorligini oshirish va o'quv natijalarining sifatini baholash 78
Abdimurodova Luiza Abdimurod qizi

Tpack modeli asosidagi mashqlar tizimi orqali talabalarning lingvokognitiv kompetensiyasini rivojlantirish 85
Allamuratov G'ofur Ashurovich

Periphrasis as a Mechanism of Secondary Nomination in English And Uzbek: a Comparative Linguo-Semantic Study 90
Fazilov Odil

Fizika ta'limida STEAM yondashuvi asosida barqaror rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish 97
Omonova Sitora Zafar qizi

Raqamli ta'lim muhitida generativ sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish orqali pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish 102
Rizayeva Sanobar Davlataliyevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish sinergetik ekotizimini adaptiv transformatsiyalash mexanizmlari 108
Supiyeva Buxolida Abduvaliyevna

Rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyalarini baholashda psixologik-intellektual o'yin texnologiyalaridan foydalanish 113
To'raxo'jayeva Ra'no Rustam qizi

Matn bilan ishlashning zamonaviy texnologiyalari (10-sinf ona tili darslari misolida) 118
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Развитие познавательной активности учащихся 6 классов госпитальной школы в процессе самостоятельной работы по ботанике с использованием ИКТ 124
Баходирова Камола Комиловна, Хошимова Гулзода Ойбековна, Рустамова Нозима Фазлиддиновна

Развитие медиаменталитета студентов в условиях интеграции искусственного интеллекта и витагенных образовательных технологий: модель, методы и критерии оценки 130
Рустамова Нодира Рустамовна

O'quvchilarning aqliy mehnat kompetensiyasini rivojlantirishda tafakkur operatsiyalarining o'rni 137
Eshmonov Moxirjon Baxtiyor o'g'li

Yosh bokschilarni tezlik reaksiya dinamikasini rivojlantirish mexanizmlari 140
Malikzoda Abdulatif Abdubannon o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning ijtimoiy moslashuvini shakllantirishda pedagog-tarbiyachining roli 148
Rahmonqulova Xolida Bosimovna

10–12 yoshli futbolchilarda aerobik chidamlilikni rivojlantirishda maxsus suzish mashqlari kompleksining ilmiy-metodik asoslari 152
Akromov Shoxrux Jamshid o'g'li

Fikr tarbiyasiga oid nazariy yondashuvlar, konsepsiyalar va metodologik mexanizmlar 159
Ismoilova Gulrux Ulug'bekovna

Milliy identiklikning nazariy-konseptual asoslari va jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati 163
Salimov Doniyor Musurmonovich

Authentic Materials in Preschool English Teaching 169
Eshboeva Durdona Alisher qizi

Elektron o'quv adabiyotlarni yaratish metodikasi 174
Adasheva Mavludaxon Umataliyevna

Axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishning zamonaviy metod va yondashuvlari: "resurs - metod - natija" modeli 180
Alijonova Shahnozaxon Kozimjon qizi, Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna

Ko'rishda nuqsoni bor shaxslar ijtimoiy integratsiyasining shaxsiylik omillari 184
Tohirova Mohigul Umir qizi

Oliy ta'limda moslashuvchan ta'lim shakllari sharoitida kompetensiyaga asoslangan o'qitish metodikasini raqamli transformatsiya qilish modeli 190
Xojimurodova Muxlisa Fayzulla qizi

Tayyorlov guruhidagi bolalarning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari 195
Sirojiddinova Nilufar Qodirali qizi

Bo'laklab integrallash formulasini muammoli ta'lim usulida o'rgatish metodikasi 200
Zaxriddinova Shaxlo Zahiriddin qizi, Arabova Jasmina Oybek qizi

Maktab matematika kursida trigonometriyani o'qitishda vizuallashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari 205
Turg'unpo'latova Shahnoza Sarvarjon qizi, Adashev Jobir Kadirovich

Internetdan samarali foydalanishga doir lokus nazoratni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari 211
Abduraimova Farida Ilhomovna

Neyropedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning o'quv-bilish qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 215
Abdixodirova Go'zal Erali qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Dual ta'lim asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmi: tarkibiy qismlar va baholash mezonlari 220
Akmalova Mohinur Zafar qizi

Fanlararo integratsiya vositasida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kreativ-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish 224
Asqarova Fayoza Jasur qizi

Ingliz tilini o'qitishda yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning sun'iy intellekt imkoniyatlari asosidagi metodik yondashuvlari 228
Axmedova Sarvinoz Hikmatovna

O'smir yoshidagi qizlarning xulqi og'ishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar 232
Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari 237
Jabborova Ro'za O'rinbayevna

Ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish 244
Mahamatnabiyeva Barno Abduqodir qizi

O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlar 250
Sadikova Asila Baxtiyor qizi

Koxlear implantli bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodikasi 255
Najimova Muxabbat Teshaboyevna

12–14 yoshli futbolchilarning jismoniy va psixologik holatini rivojlantirishda musobaqaoldi emotsional tayyorgarlikning ahamiyati 259
Nazarov Rustam Nurali o'g'li

Darslarni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish 263
Shamsiyeva Inobat Qosimjonovna

Tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 268
Egamberdiyeva Muqaddas Gupronqul qizi

Texnika oliy ta'lim tashkilotlarida obyektga yo'naltirilgan dasturlash fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish 273
Xodiyeva Shohsanam Baxtiyor qizi

Maktabgacha ta'limda kreativ pedagogik muhitni tashkil etish orqali bolalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish 280
Kadirova Dildora Nadjatbekovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari 285
Xamidova Malikaxon Oktamovna

Pedagogik improvizatsiya orqali nostandart ta'limiy vaziyatlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 291
Yuldashev Azamatjon G'ayratbek o'g'li

Talabalarda akademik mobillikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari 297
Shermanova Diyora Shakarboyevna

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: pedagogik imkoniyatlar va ehtimoliy xavflar 301
Abdullayeva Sarvinoz Ulug'bek qizi

Mustaqil ta'limni tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mazmuni 306
Mamurova Dilfuza Islomovna

Maktabgacha ta'limda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari 310
Rustamova Mavluda Erkinovna, Sharafutdinova Durdona Akmelevna

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati 314
Xamdamova Gulhayo Xoshimovna

Национально-ориентированная методика обучения русской грамматике учащихся-билингвов в условиях Узбекистана 318
Кадирова Зарина Фархатовна

Взаимосвязь лингвистических знаний и педагогических технологий в обучении русскому языку иностранных студентов 326
Яллабоева Зарина Бобохон кизи

Alyuminiy mavzusini o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati 330
Abdisattarova Elmira Abdijamilovna, Bazarbaeva Aysanem Baxadir qizi

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (K. Otaniyozov ijodi misolida) 333
Ruzmetov Xayitboy Kaxramonovich

Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning ijodiy (kreativ) qobiliyatlarini rivojlantirish 337
Sharipova Zarnigor Zarif qizi

Kasbiy ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining boshqaruv va marketing kompetensiyalarini bevosita faoliyat jarayonida takomillashtirish metodikasi 342
Tursunova Shoxista Hayitboyevna

Kasbiy ta'limda xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etishning pedagogik va boshqaruv mexanizmlari 346
Urazbaeva Aziza Uktamovna

Informatika darslarida yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi 351
Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining pedagogik mohiyati va ularning klassifikatsion xususiyatlari 354
Ergasheva Fazilat

Shaxs, oila munosabatlarida rashkning jinsiy tafovutlanishi 359
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna

Fransuz va o'zbek tillaridagi fe'llarning monosemantik va polisemantik ifodalanishi 364
Bekmetova Munisa Karimbayevna

Ilmiy-texnik atamalarni izohlashda kontekstning o'rni 370
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna

Raqamlashtirish sharoitida adabiyot o'qitishni takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar 374
Oymatova Nilufar Mirjamolovna

Maktabgacha ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va korreksion-rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish 377
Eshmaxmadova Aziza Xusnitdinovna

Refleksiv texnologiyalar vositasida akademik halollikni rivojlantirishning pedagogik tizimi va metodikasi 382
Obbosova Mukhtasarkhon Bakirali qizi

O'zbek va turk tillarida ko'z/göz somatik leksemalarining semantik xususiyatlari va elektron lug'atda modellashtirish 386
Feruza Rahmatova, Rahmatova Feruza

Bo'lajak tarbiyachilarning persepsiv kompetensiyasini shakllantirish metodikasi 392
Murodova Farangis G'anisherovna

Andragogik yondashuv asosida xotin-qizlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish 399
Suyunova Oysanam Orif qizi

Zamonaviy yoshlarning psixik rivojlanishida ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati 403
Asila Akbaraliyeva Tojiddinovna, Nazarova Sevinch

Методика формирования цифровой педагогической компетентности будущих педагогов в проектировании воспитательной деятельности обучающихся 407
Г. Н. Бердиханова

Developing Professional Vocabulary of Music Students in English Through Context-Based Learning 413
Akbarova Moxichexra Rifatillayevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Imkoniyati cheklangan yosh nayza uloqtiruvchilarning kuch kobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi 419
Baxshullayeva Maloxat Baxtiyor qizi

Tibbiyot xodimlarida kasbiy stressni erta aniqlashning klinik-psixologik mexanizmlari va psixoprofilaktika modelini takomillashtirish 424
Egamov Egamberdi Azimjon o'g'li

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari... 428
Karimov Inoyat Allamovich

Raqamli ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati 435
Komilova Zulxumor Xokimovna

Oliy ta'limda hunarmandchilik va sun'iy intellekt texnologiyalari integratsiyasi asosida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik asoslari..... 440
Mukumova Feruza Xudoyqulovna

O'quvchilarda formativ baholash sharoitida cholg'u ijrochilikka oid kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari 445
Nazarova Sabrina Allaberdi qizi

Masofaviy ta'lim texnologiyalari va LMS (Learning Management System) tushunchasi: Moodle, Google Classroom 451
Rabbimova Munisxon Mustafoyevna

Muhandislik ta'limida abstrakt tafakkurni rivojlantirish muammosi va grafik dasturlash muhitlarining xorijiy tajribasi tahlili 456
Umarova Benazir Botirjon qizi

Kombinatorik masalalarni algoritmlashtirishga o'rgatishda sun'iy intellekt asosidagi qo'llab-quvvatlash modeli: o'zbek manbalari tahlili va modelni asoslash 460
Valijonov Sarvarbek G'ofurjon o'g'li

Oilaviy hayotning turli bosqichlarida kasbiy stress va emotsional regulyatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy-psixologik asoslari..... 464
Yarashova Sitora Yermamatovna

Bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy-tadqiqotchilik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik modelini takomillashtirish 470
Atabayeva Muxlisa Erkin qizi

Oliy ta'lim talabalarida matematik muammolarni tadqiqiy tahlil qilish asosida ilmiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-nazariy asoslari 474
Qayumova Barno Abdishukurovna

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi 479
Ergasheva Surayyo Yo'ldoshevna, Sultonova O'g'iloy Nabiyevna

Organization and Innovative Management of the Processes of Preparing Students of the Preschool Educational Direction for Professional and Creative Activities 482
Mukhamedkhodzhaeva Mavzhuda Akhbarovna

Qizlarda 100 metrga yugurish natijalarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari 486
Muqimov Olim Ergashevich

Bo'lajak matematika o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish 491
Nasriddinova Halima Farhod qizi

Jadid pedagogik merosi asosida bo'lajak o'qituvchilarning qizlar ta'lim-tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish 497
Toshova Zilola Kamolovna

Talabalarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish metodikasi..... 502
Turayeva Mavluda Ergashevna

Boshlang'ich ta'limda muammoli vaziyatlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish asosida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi..... 507
Xurramov Rustam Sayfiddinovich

Rizobiyalar bilan inokulyatsiya qilish va dala no‘xati don hosildorligi: ilmiy dalillar, ta’sir etuvchi omillar va muammolar 512
Alimova Xurshida Baxadirovna, Yuldashov O‘tkir Xayitovich

Talabalarning ma’naviy immunitetini shakllantirishda jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari 518
Babayev Anvarjon Axmedovich

Autistik spektr buzilishi bo’lgan bolalarda “raqamli exolaliya” fenomeni: ekran nutqining exolalik reaksiyalar morfologiyasiga ta’sirini logopedik differensial tahlil qilish 522
Foiqova Diyora Anvar qizi

Ta’limni transformatsiyalash sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 527
Norqobilov Alijon Abdinazar o‘g‘li

Yevropa ma’rifatchiligi konsepsiyasi va uning falsafiy-estetik asoslari 531
Sattarov Farrux

Biologiya ta’limida o‘simliklarning vegetativ organlarini o‘qitishda 3D-golografiya va sun’iy intellekt imkoniyatlari 537
Xolikova Moxichexra Azamatovna

Обучение иностранным языкам в эпоху цифровизации: педагогические, цифровые и ИИ-технологии для языковых и неязыковых направлений подготовки 543
Умарова Дильфуза Маматкуловна

Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 547
Mohlaroyim Mamaraimova

Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish 553
Eshpulatova Saodat Maxmatovna

Yunon-rum kurashchilarining maxsus jismoniy tayyorgarlik bosqichlari: nazariy va amaliy-metodik yondashuv 557
Turayev Nodirjon Najmiddinovich

Oliy ta’limda interfaol o‘qitish metodlarini qo‘llashning samaradorligi 562
Eshdavlatova Qunduz Eshpulatovna

Nemis tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda padlet onlayn doskasidan foydalanish 568
Hayotova Dilafro‘z Zoyirovna

Mustaqillik yillarida pedagog olimalarning ilmiy faoliyatining qiyosiy-xronologik tahlili 572
To‘ymurodova Gullola Normurod qizi

Milliy atlas va adras matolarining rang barqarorligi va ekspluatatsion xususiyatlarini oshirish texnologiyasini takomillashtirish 578
Xatamova Aziza Ochildiyevna

Kreativ axborot ta’lim muhitida nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi 583
Aliboyev Sobir Xolboyevich

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar davrida voyaga yetmaganlarning psixologik xavfsizligini ta’minlashning ilmiy-amaliy asoslari 590
Axmedov Farxod Furqatovich

Bo‘lg‘usi fizika mutaxassislarini tayyorlashning samarali usul va vositalari 597
Sobirova Lolagul Madiyor qizi

Reflection and Critical Thinking Dispositions Among University Students in Uzbekistan 602
Zarina Nasimova

TALABALARNING MA'NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Babayev Anvarjon Axmedovich
"Jismoniy madaniyat" kafedrasi o'qituvchisi,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz, O'zbekiston
E-mail: anvarbabaev1986@gmail.com

ORCID: 0009-0009-6786-1175

Annotatsiya: Maqolada talabalarning ma'naviy immunitetini shakllantirishda jismoniy tarbiya vositalarining pedagogik imkoniyatlari integrativ nazariy tahlil asosida ochib berilgan. Tadqiqotning maqsadi jismoniy faollik, axloqiy me'yorlar, irodaviy o'zini o'zi boshqarish, hamkorlik va refleksiyani yagona pedagogik tizimga birlashtiruvchi konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, pedagogik modellashtirish va mazmuniy sintezdan foydalanildi. Natijada ma'naviy immunitetning aksiologik, irodaviy-regulyativ, ijtimoiy-kommunikativ, refleksiv va sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan komponentlari ajratildi hamda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ularni rivojlantirish mexanizmlari asoslandi.

Kalit so'zlar: ma'naviy immunitet, jismoniy tarbiya, talaba, qadriyat, irodaviy sifat, refleksiya, hamkorlik, pedagogik model, jismoniy faollik.

Abstract: This article examines the pedagogical potential of physical education in developing students' spiritual and moral immunity through an integrative theoretical analysis. The aim of the study is to develop a conceptual model that integrates physical activity, moral norms, volitional self-regulation, cooperation, and reflection into a unified pedagogical system. The research methods include a comparative analysis of scholarly sources, pedagogical modeling, and content synthesis. The findings identify the axiological, volitional-regulatory, social-communicative, and reflective components of spiritual and moral immunity, as well as a component focused on a healthy lifestyle. The mechanisms for developing these components through physical education classes are also substantiated.

Key words: spiritual and moral immunity, physical education, students, values, volitional qualities, reflection, cooperation, pedagogical model, physical activity.

Аннотация: В статье на основе интегративного теоретического анализа раскрываются педагогические возможности средств физического воспитания в формировании духовно-нравственного иммунитета студентов. Цель исследования – разработать концептуальную модель, объединяющую физическую активность, нравственные нормы, волевую саморегуляцию, сотрудничество и рефлексию. В качестве методов исследования использованы сравнительный анализ научных источников, педагогическое моделирование и содержательный синтез. Выделены аксиологический, волевой-регулятивный, социально-коммуникативный, рефлексивный компоненты, а также компонент, ориентированный на здоровый образ жизни. Обоснованы механизмы их развития в процессе занятий физическим воспитанием.

Ключевые слова: духовно-нравственный иммунитет, физическое воспитание, студент, ценности, волевые качества, рефлексия, сотрудничество, педагогическая модель.

KIRISH

Oliy ta'limning zamonaviy vazifasi faqat kasbiy bilim berish bilan cheklanmaydi. Talaba turli axborot oqimlari, ijtimoiy bosim, qadriyatlar raqobati va tez o'zgarayotgan kommunikativ muhitda mustaqil qaror qabul qila olishi, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishi hamda jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarni ongli ravishda qo'llashi zarur. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviy immunitet tushunchasi shaxsning qadriyatli yo'nalishi, tanqidiy munosabati, irodaviy barqarorligi va mas'uliyatli xulqini birlashtiruvchi pedagogik konstrukt sifatida talqin qilinishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi hamda shaxsni har tomonlama rivojlantirish kabi tamoyillari belgilangan [1].

Jismoniy tarbiya mazkur vazifani amalga oshirishda o‘ziga xos resursga ega. Mashg‘ulotlar jarayonida talaba qoidalarga rioya qilish, tartib-intizomga amal qilish, sheriklar bilan hamkorlik qilish, raqobatni me’yor doirasida olib borish, muvaffaqiyatsizlikka munosabat bildirish, maqsadga erishish uchun muntazam harakat qilish va o‘z holatini nazorat etish kabi real vaziyatlarga duch keladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti muntazam jismoniy faollikning jismoniy salomatlik bilan bir qatorda ruhiy farovonlikka ham ijobiy ta’sirini qayd etadi [2].

Demak, jismoniy tarbiya pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganda tarbiyaviy mazmunni tabiiy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi talabalarning ma’naviy immunitetini shakllantirishda jismoniy tarbiya vositalarining pedagogik imkoniyatlarini tizimlashtirish va ularning o‘zaro ta’sirini ifodalovchi konseptual modelni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning ma’naviy immunitetini shakllantirishda jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish masalasi shaxsning axloqiy, irodaviy va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq.

Opstoel va hammualliflar (2020) jismoniy tarbiya va sportning mas’uliyat, yetakchilik, hamkorlik hamda prosotsial xulqni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritgan [1].

Dudley va hammualliflar (2022) tadqiqotida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini maqsadli tashkil etish ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslangan [2].

Shuningdek, Aygun va hammualliflar (2024) tomonidan o‘tkazilgan tizimli sharh va meta-tahlilda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish modelining ijobiy natijalari qayd etilgan [3].

Mazkur tadqiqotlar jismoniy tarbiya vositalarini talabalarda axloqiy qadriyatlar, o‘zini boshqarish, hamkorlik va mas’uliyatni rivojlantirishga yo‘naltirish mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq ma’naviy immunitetni shakllantirishda ushbu vositalarning samaradorligini aniqlash uchun oliy ta’lim muassasalarida maxsus empirik tadqiqotlar olib borish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot integrativ nazariy tahlil dizayni asosida tashkil etildi. 2020–2026-yillarda jismoniy tarbiya, ijtimoiy va axloqiy rivojlanish, shaxsiy mas’uliyat, psixologik chidamlilik hamda universitet talabalari jismoniy faolligiga bag‘ishlangan ilmiy manbalar mazmunan tahlil qilindi. Asosiy manbalar sifatida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) hujjatlari hamda European Physical Education Review, Frontiers in Psychology, Children, BMC Public Health, BMC Psychology va Healthcare jurnallarida chop etilgan tizimli sharhlar va meta-tahlillardan foydalanildi [2–10].

Tahlil uch bosqichda olib borildi.

Birinchi bosqichda jismoniy tarbiyaning tarbiyaviy natijalarini ifodalovchi tushunchalar ajratildi: mas’uliyat, hamkorlik, prosotsial xulq, o‘zini boshqarish, chidamlilik, ijobiy emotsional tajriba va sog‘lom turmush tarziga yo‘nalish.

Ikkinchi bosqichda ushbu natijalar ma’naviy immunitetning pedagogik komponentlari bo‘yicha guruhlandi.

Uchinchi bosqichda komponentlar, jismoniy tarbiya vositalari va kutiladigan ta’limiy natijalar o‘rtasidagi aloqalar pedagogik modellashtirish asosida yagona tizimga birlashtirildi.

Mazkur tadqiqotda yangi respondentlar jalb qilinmagan va shaxsiy ma’lumotlar yig‘ilmagan. Shu sababli natijalar empirik eksperiment ko‘rsatkichlari emas, balki mavjud ilmiy dalillar sintezi va muallif tomonidan amalga oshirilgan konseptual modellashtirishga asoslangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil jismoniy tarbiya va sport faoliyatining shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishga ta’siri tasodifiy emasligini ko‘rsatdi. Opstoel va hammualliflar jismoniy tarbiya va sport doirasida mas’uliyat, yetakchilik, hamkorlik, qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va prosotsial xulq kabi o‘n bitta mavzuni ajratgan [4]. Dudley va hammualliflarning meta-tahlili esa sifatli tashkil etilgan jismoniy tarbiya intervensiyalari ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, ayniqsa, kooperativ o‘qitish yondashuvlari samarali ekanini ko‘rsatadi [5]. Mas’uliyatni o‘rgatishga yo‘naltirilgan TPSR modeli bo‘yicha meta-tahlilda ijtimoiy va emotsional natijalarga ijobiy ta’sir aniqlangan [6]. 2025-yilda e’lon qilingan tizimli sharhda esa jismoniy tarbiya dasturlariga axloqiy tarbiya, hurmat, hamkorlik, emotsional regulyatsiya va mas’uliyat komponentlarini maqsadli kiritish ijobiy natijalar bilan bog‘liqligi qayd etilgan [8]. Ushbu dalillar ma’naviy immunitetni jismoniy mashqlarning avtomatik mahsuli sifatida emas, balki maxsus pedagogik maqsadlar, mazmun va refleksiya orqali shakllantiriladigan sifat sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Nazariy sintez asosida ma'naviy immunitetning besh komponentli modeli taklif etildi:

1) aksiologik komponent – halollik, adolat, hurmat va mas'uliyat mezonlarini anglash;
2) irodaviy-regulyativ komponent – maqsadga intilishni davom ettirish, zo'riqishni boshqarish, intizomga rioya qilish va o'zini nazorat qilish;
3) ijtimoiy-kommunikativ komponent – hamkorlik, sherikni qo'llab-quvvatlash va nizolarni konstruktiv hal etish;
4) refleksiv komponent – o'z xulqi va qarorlarini baholash, xatolardan xulosa chiqarish;
5) sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan komponent – jismoniy faollikni shaxsiy mas'uliyat va hayotiy me'yor sifatida qabul qilish.

Mazkur komponentlarning samarali rivojlanishi uchun mashg'ulotlar tuzilmasiga nafaqat jismoniy yuklama, balki maqsadli tarbiyaviy topshiriqlar ham kiritilishi kerak. Masalan, jamoaviy o'yinlarda rollarni almashtirish adolat va mas'uliyatni rivojlantirishga, estafeta va juftlik mashqlari o'zaro ishonchni mustahkamlashga, murakkab koordinatsion vazifalar sabr-toqat va o'zini nazorat qilishni rivojlantirishga, yakuniy refleksiya esa orttirilgan tajribani qadriyatli xulosalarga aylantirishga xizmat qiladi.

1-jadval: **Modelning asosiy tarkibiy elementlari**

Komponent	Jismoniy tarbiya vositasi	Pedagogik natija
Aksiologik	Fair-play qoidalari, jamoaviy o'yinlar	Adolat, hurmat, halollik mezonlarini amalda qo'llash
Irodaviy-regulyativ	Bosqichma-bosqich yuklama, individual maqsadlar	Intizom, qat'iyat, o'zini nazorat qilish
Ijtimoiy-kommunikativ	Juftlik va jamoaviy topshiriqlar	Hamkorlik, o'zaro yordam, mas'uliyat
Refleksiv	Mashg'ulotdan keyingi qisqa tahlil	O'z xulqini baholash va xatodan xulosa chiqarish
Sog'lom turmush	Mustaqil faollik rejasi, monitoring	Sog'lom xulqning barqaror odatga aylanishi

Taklif etilayotgan modelda "ma'naviy immunitet" himoyaviy metafora sifatida emas, balki talabaning qadriyatli tanlovi va o'zini boshqarish qobiliyatining integrativ ifodasi sifatida qo'llanadi. Bunday yondashuv jismoniy tarbiya natijalarini faqat kuch, chidamlilik yoki tezkorlik ko'rsatkichlari bilan baholash doirasini kengaytiradi. Sportda qoidalarga rioya qilish, sherikka hurmat bilan munosabatda bo'lish va maqsad sari tizimli harakat qilish kundalik hayotdagi axloqiy qarorlar bilan bevosita tenglashtirilmaydi, biroq pedagogik refleksiya orqali ular boshqa hayotiy vaziyatlarga tatbiq etiladigan tajribaga aylanishi mumkin.

Psixologik chidamlilikka oid zamonaviy meta-tahlillar jismoniy faollik va chidamlilik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda [7]. Universitet talabalari bo'yicha 2026-yilda e'lon qilingan tahlillarda ham jismoniy faollik, chidamlilik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va emotsional jarayonlar o'rtasidagi bog'liqliklar qayd etilgan [9, 10].

Biroq ushbu natijalarni ma'naviy fazilatlarning bevosita sababi sifatida talqin qilish to'g'ri emas. Jismoniy faollik buning uchun muayyan sharoit yaratadi, tarbiyaviy natija esa o'qituvchining metodik yondashuvi, guruh me'yorlari, refleksiya va baholash mezonlariga bog'liq.

Taklif etilayotgan modelning amaliy jihatdan muhim tomoni shundaki, u jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga alohida "ma'naviyat darsi"ni kiritishni talab qilmaydi. Aksincha, mashg'ulotning o'zida yuzaga keladigan vaziyatlar – qoidalarga rioya qilish, natijani qabul qilish, sherik bilan ishlash va murakkab topshiriqni oxirigacha bajarish – maqsadli pedagogik vazifalarga aylantiriladi.

XULOSA

Jismoniy tarbiya talabalarning ma'naviy immunitetini shakllantirish uchun funksional pedagogik maydon yaratadi, biroq bu ta'sir faqat jismoniy faollikning o'zi bilan yuzaga kelmaydi. Tarbiyaviy maqsad, ijtimoiy vaziyat, mas'uliyatli tanlov, o'zini boshqarish va refleksiya yagona didaktik tizimga birlashtirilganda, jismoniy tarbiya shaxsning qadriyatli va irodaviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Taklif etilgan besh komponentli model oliy ta'limdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari mazmunini boyitish, tarbiyaviy natijalarni rejalashtirish va keyingi empirik tadqiqotlar uchun o'lchov mezonlarini ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Available at: https://lex.uz/docs/5013007.
2. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: WHO; 2020. ISBN 978-92-4-001512-8.
3. World Health Organization. Global Status Report on Physical Activity 2022. Geneva: WHO; 2022. ISBN 978-92-4-005915-3.
4. Opstoel K., Chapelle L., Prins F., De Meester A., Haerens L., van Tartwijk J., De Martelaer K. Personal and social development in physical education and sports: A review study. European Physical Education Review. 2020;26(4):797–813. doi:10.1177/1356336X19882054.
5. Dudley D., Mackenzie E., Van Bergen P., Cairney J., Barnett L. What Drives Quality Physical Education? A Systematic Review and Meta-Analysis of Learning and Development Effects From Physical Education-Based Interventions. Frontiers in Psychology. 2022;13:799330. doi:10.3389/fpsyg.2022.799330.
6. Aygun Y., Boke H., Yagin F.H., Tufekci S., Murathan T., Gencay E., Prieto-González P., Ardigò L.P. Emotional and Social Outcomes of the Teaching Personal and Social Responsibility Model in Physical Education: A Systematic Review and Meta-Analysis. Children. 2024;11(4):459. doi:10.3390/children11040459.
7. Qiu W., Huang C., Xiao H., Nie Y., Ma W., Zhou F., Liu C. The correlation between physical activity and psychological resilience in young students: a systematic review and meta-analysis. Frontiers in Psychology. 2025;16:1557347. doi:10.3389/fpsyg.2025.1557347.
8. Jadwiszczak M., Wawrzyniak S., Pezdek K. More than movement: a systematic review of moral and social development in adolescents physical education. BMC Public Health. 2025;25:2076. doi:10.1186/s12889-025-23169-2.
9. Ge C., Li X., Li J., et al. The influence pathways of physical activity on anxiety in university students: a systematic review and meta-analytic structural equation modeling study based on psychological resilience and social support. BMC Psychology. 2026;14:193. doi:10.1186/s40359-025-03915-2.
10. Pérez-Romero N., Caballero-Cerbán M., San Román Mata S. Psychosocial Correlates of Physical Activity Engagement in University Students: A Systematic Review of Resilience and Emotional Processes. Healthcare. 2026;14(13):1929. doi:10.3390/healthcare14131929.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.